



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-yil maxsus son

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası professori, yuridik fanlar doktori
Li Adik Aleksandrovichning 80 yosh yubileyiga bag'ishlanadi.*

VOLUME 5 / SPECIAL ISSUE / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Mustafayev,
Y. Yarmolik,
E. Sharipov,
K. Abduvaliyeva,
Y. Mahmudov,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnoma

№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2025-yil 9-dekabrda
bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 13
Adadi: 100. Buyurtma: № 199.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

J. Blum – Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (AQSh)

M. Vishovaty – Polshaning Gdansk universiteti professori (Polsha)

M. Hayat – Muhammadiyah Malang universiteti o'qituvchisi (Indoneziya)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

A. Yakubov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro hamkorlik va uzluksiz ta'lim bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

X. Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, yuridik fanlar doktori, professor

S. Yusupov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasini mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

E. Egamberdiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi kafedrasini dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Sh. Ismoilov – Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi kafedrasini mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent

G. Uzakova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

G. Yo'ldasheva – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

A. Yo'ldoshev – Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedrasini dotsenti, yuridik fanlar doktori

R. Altiev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasini professori v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasini dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

S. Oripov – Toshkent davlat agrar universiteti Huquqshunoslik kafedrasini dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

F. Hamdamova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasini dotsenti v.b., yuridik fanlar doktori

D. So'fiyeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrasini katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasini dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Мустафаев,
Е. Ярмолик,
Э. Шарипов,
К. Абдувалиева,
Й. Махмудов,
М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт:

jurisprudence.tsul.uz

E-mail:

lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс:

1387.

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
09.12.2025.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 13. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 199.

Отпечатано в типографии Ташкентского государственного юридического университета.
100047, г. Ташкент,
ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – профессор юридической школы Бостонского колледжа (Бостон, США), доктор юридических наук

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

М. Хаят – преподаватель Университета Мухаммадия Маланг (Индонезия)

А. Хошимхонов – первый проректор по делам молодёжи и духовно-просветительской работе Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

А. Якубов – проректор по международным связям и дополнительному образованию Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

М. Ахмедшаева – профессор кафедры теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Х. Хайитов – депутат Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

С. Юсупов – заведующий кафедрой административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Э. Эгамбердиев – доцент кафедры гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Ш. Исмоилов – заведующий кафедрой трудового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

Г. Узакова – профессор кафедры экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Г. Юлдашева – профессор кафедры международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Юлдашев – доцент кафедры конституционного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Р. Алтиев – и.о. профессора кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

М. Курбанов – и.о. профессора кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

С. Орипов – доцент кафедры права Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Ф. Хамдамова – и.о. доцента кафедры международного и публичного права Университета мировой экономики и дипломатии, доктор юридических наук

Д. Суфиева – старший преподаватель кафедры теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Р. Кучкаров – доцент кафедры общеобразовательных дисциплин и культуры Ташкентского государственного юридического университета, кандидат филологических наук

FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Mustafaev,
E. Yarmolik,
E. Sharipov,
K. Abduvalieva,
Y. Makhmudov,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 09.12.2025.

Paper size: A4. Cond.p.f: 13.

Units: 100. Order: № 199.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

Z. Esanova – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

M. Hayat – Lecturer of the University of Muhammadiyah Malang (Indonesia)

A. Khoshimkhonov – First Deputy Rector for Youth Affairs and Spiritual and Educational Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

A. Yakubov – Deputy Rector for International Relations and Further Education of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

M. Akhmedshaeva – Professor of the Department of Theory of State and Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

Kh. Khayitov – Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

S. Yusupov – Head of the Department of Administrative and Financial Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

E. Egamberdiev – Associate Professor of the Department of Civil Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Sh. Ismoilov – Head of the Department of Labor Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

G. Uzakova – Professor of the Department of Environmental Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law

G. Yuldasheva – Professor of the Department of International Law and Human Rights at Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Yuldoshev – Associate Professor of the Department of Constitutional Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law

R. Altiev – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

M. Kurbanov – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

S. Oripov – Associate Professor of the Department of Law at Tashkent State Agrarian University, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

F. Hamdamova – Acting Associate Professor of the Department of International Law and Public Law at the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law

D. Sufiyeva – Senior Lecturer of the Department of Theory of State and Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

R. Kuchkarov – Associate Professor of the Department of General Sciences and Culture at Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

8 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**

Raqamlashtirish sharoitida davlatning moliyaviy funksiyasi rivojining ayrim nazariy-huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

16 **YUSUPOV SARDORBЕК BAXODIROVICH**

Budjet jarayonida davlat va nodavlat organlarining ishtiroki

23 **LI ADIK ALEKSANDROVICH**

Tadbirkorlik faoliyati sohasida davlatning moliyaviy siyosati

32 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**

O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini moliyaviy-huquqiy tartibga solish masalalari

39 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**

O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining rivojlanish tendensiyalari

54 **SAMIGDJANOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**

"Budjet jarayoni" tushunchasi, uning xususiyatlari va bosqichlari

61 **AVEZOVA ELEONORA PARAXATOVNA**

Xalqaro standartlar va ularning O'zbekiston moliyaviy tizimiga integratsiyasi

71 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**

Ekologiya sohasida maxsus vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ilmiy-nazariy asoslari: prinsiplari va metodlari

78 **GANIYEV BOXODIR RUSTAM O'G'LI**

O'zbekiston Respublikasida kriptovalyuta sohasidagi faoliyatni tartibga solish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

84 **RAXMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LI**

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning tushunchasi va mohiyati huquqiy toifa sifatida

91 **JURAYEVA ASAL BAXTIYEVNA, ABDIRAXIMOV ISLOMJON ILXOMJON O'G'LI**

Germaniya va O'zbekiston xalqaro tijorat arbitrajlarida korporativ nizolarni hal etish: qiyosiy huquqiy tahlil

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

100 **NARZULLAYEV OLIM XOLMAMATOVICH**

Biologik xilma-xillikni muhofaza qilishning ekologik-huquqiy asoslari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА.
ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 АХМЕДШАЕВА МАВЛЮДА АХАТОВНА

Отдельные теоретико-правовые вопросы развития финансовой функции государства в условиях цифровизации

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

16 ЮСУПОВ САРДОРБЕК БАХОДИРОВИЧ

Участие государственных и негосударственных органов в бюджетном процессе

23 ЛИ АДИК АЛЕКСАНДРОВИЧ

Государственная финансовая политика в сфере предпринимательской деятельности

32 ЖУРАЕВ ШЕРЗОД ЮЛДАШЕВИЧ

Финансово-правовое регулирование занятости в Республике Узбекистан

39 ГОЗИЕВ КОЗИМБЕК ЖОВЛОНБЕКОВИЧ

Тенденции развития законодательной базы, регулирующей деятельность высших образовательных организаций в Узбекистане

54 САМИГДЖАНОВ ФАЗЛИДДИН РАФКАТОВИЧ

Понятие бюджетного процесса, его особенности и этапы

61 АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА

Международные стандарты и их интеграция в финансовую систему Узбекистана

71 АХРОРОВ АДХАМЖОН АСРОРКУЛ УГЛИ

Научно-теоретические основы деятельности специально уполномоченных республиканских органов исполнительной власти в сфере экологии: принципы и методы

78 ГАНИЕВ БОХОДИР РУСТАМ УГЛИ

Регулирование деятельности в сфере криптовалют в Республике Узбекистан

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

84 РАХМОНОВ ОТАБЕК КУЧКОР УГЛИ

Понятие и сущность корпоративного управления в акционерных обществах как юридической категории

91 ЖУРАЕВА АСАЛ БАХТИЕВНА, АБДИРАХИМОВ ИСЛОМЖОН ИЛХОМЖОН УГЛИ

Разрешение корпоративных споров в международном коммерческом арбитраже в Германии и Узбекистане: сравнительно-правовой анализ

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО.
ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

100 НАРЗУЛЛАЕВ ОЛИМ ХОЛМАМАТОВИЧ

Экологико-правовые основы сохранения биологического разнообразия

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

8 **AKHMEDSHAEVA MAVLYUDA AKHATOVNA**

Some theoretical and legal issues of the development of the financial function of the state in the conditions of digitalization

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

16 **YUSUPOV SARDORBЕК BAKHODIROVICH**

Participation of state and non-state bodies in the budget process

23 **LI ADIK ALEKSANDROVICH**

State financial policy in the sphere of entrepreneurial activity

32 **JURAEV SHERZOD YULDASHEVICH**

Financial and legal regulation in the sphere of employment of the population in Republic of Uzbekistan

39 **GOZIEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**

Administrative and legal aspects of the development of the field of higher education until 2030 during the period of administrative reforms

54 **SAMIDJANOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**

The concept of the budget process, its characteristics and stages

61 **AVEZOVA ELEONORA PARAKHATOVNA**

International standards and their integration into the financial system of Uzbekistan

71 **AKHROROV ADKHAMJON ASRORKUL UGLI**

Scientific and theoretical foundations of the activities of specially authorized republican executive authorities in the field of ecology: principles and methods

78 **GANIEV BOKHODIR RUSTAM UGLI**

Regulation of cryptocurrency activities in the Republic of Uzbekistan

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

84 **RAXMONOV OTABEK KUCHKOR UGLI**

The concept and essence of corporate governance in joint stock companies as a legal category

91 **JURAEVA ASAL BAKHTIEVNA, ABDIRAKHIMOV ISLOMJOH ILKHOMJOH UGLI**

Resolution of corporate disputes in international commercial arbitration in Germany and Uzbekistan: a comparative legal analysis

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

100 **NARZULLAEV OLIM KHOLMAMATOVICH**

Ecological and legal basis of biological diversity conservation

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 24.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 09.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI/RIYH6472

UDC: (342.9+336.025):336.14(045)(575.1)

“BUDJET JARAYONI” TUSHUNCHASI, UNING XUSUSIYATLARI VA BOSQICHLARI

Samigdjanov Fazliddin Rafkatovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası katta o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

ORCID: 0000-0002-0622-4529

e-mail: f.samigjonov@tsul.uz

Annotatsiya. Maqolada “budjet jarayoni” tushunchasi, uning mohiyati, xususiyatlari va bosqichlari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Budjet jarayoni davlat moliyaviy boshqaruvi tizimida markaziy o'rin tutishi, davlat resurslarini samarali taqsimlash va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlari sifatida uning qonuniyligi, rejalashtirilganligi, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada budjet jarayonining asosiy bosqichlari – budjet rejalashtirish, ijro etish va nazorat qilish, shuningdek, budjetni tasdiqlash va konsolidatsiyalashgan budjetni shakllantirish jarayonlari batafsil yoritilgan. Shu bilan birga, davlat boshqaruv organlarining budjet jarayonidagi roli va funksiyalari tahlil qilinadi. Maqola nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy nuqtayi nazardan ham budjet jarayonini tushunishga ko'mak beradi.

Kalit so'zlar: budjet, budjet jarayoni, daromad, davlat budjeti, budjet bosqichlari, budjetni tasdiqlash, konsolidatsiyalashgan budjet, davlat boshqaruv organlari

ПОНЯТИЕ БЮДЖЕТНОГО ПРОЦЕССА, ЕГО ОСОБЕННОСТИ И ЭТАПЫ

Самигджанов Фазлиддин Рафкатович,

доктор философии (PhD) по юридическим наукам,

старший преподаватель кафедры

«Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье системно анализируются понятие «бюджетный процесс», его сущность, особенности и основные этапы. Подчеркивается, что бюджетный процесс занимает центральное место в системе государственного финансового управления и играет важную роль в эффективном распределении государственных ресурсов и удовлетворении социально-экономических потребностей общества. К числу особенностей данного процесса отнесены его законность, плановость, системность и поэтапный характер осуществления. В статье подробно раскрываются ключевые стадии бюджетного процесса – бюджетное планирование, исполнение и контроль, а также процедуры утверждения бюджета и формирования консолидированного бюджета. Наряду с этим анализируются роль и функции органов государственного управления в бюджетном процессе. Изложенное в статье

способствует пониманию бюджетного процесса как с теоретической, так и с практической точки зрения.

Ключевые слова: бюджет, бюджетный процесс, доходы, государственный бюджет, этапы бюджетного процесса, утверждение бюджета, консолидированный бюджет, органы государственного управления

THE CONCEPT OF THE BUDGET PROCESS, ITS CHARACTERISTICS AND STAGES

Samidjanov Fazliddin Rafkatovich,
Senior Lecturer at the Department of
Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. The article systematically analyzes the concept of the "budget process," its essence, features, and stages. It is emphasized that the budget process occupies a central place in the system of state financial management and plays an important role in the effective distribution of state resources and the satisfaction of the socio-economic needs of society. The features of this process are its legality, planning, systematic and phased implementation. The article details the main stages of the budget process – budget planning, execution, and control, as well as the processes of budget approval and consolidated budget formation. At the same time, the role and functions of government bodies in the budget process are analyzed. The article helps to understand the budget process not only theoretically, but also practically.

Keywords: budget, budget process, revenue, state budget, budgeting stages, budget approval, consolidated budget, public administration bodies

Kirish

Budjet jarayonining mohiyatini anglash uchun, birinchi navbatda, "jarayon" va "yuridik jarayon" kabi tushunchalarga, shuningdek, o'zaro bog'liq bo'lgan boshqa atamalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Ushbu tushunchalar o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega, chunki ular orqali davlatning budjet jarayoni tashkil etilishini ta'minlaydigan qonun hujjatlari yaratiladi.

Aytish lozimki, "jarayon" va "yuridik jarayon" tushunchalarining yagona ta'rifi yo'q. Ya'ni "jarayon" va "yuridik jarayon" tushunchalarining aniq, umumiy qabul qilingan huquqiy ta'rifi yo'q. Natijada esa ilmiy muammo kelib chiqadi. Bu esa budjet jarayonining huquqiy tabiatini izohlashni murakkablashtiradi.

"Jarayon" atamasi (lotincha "processus" – o'sish, taraqqiyot) uzluksiz birlashgan harakatni ifodalovchi rivojlanish bosqichlarining o'zaro aloqadorligini, tabiiy ravishda bir-birini taqozo qiladigan vaziyatlarning ketma-ket

o'zgarishini anglatadi (Lekhina & Petrova, 1952).

N.G. Salishcheva (1963) "jarayon" atamasi-ni faqat yuridik vaziyatlarda nizolarni hal qilish tartibi sifatida tushunadi, ya'ni jarayonni huquqiy nizoga baho berish faoliyati sifatida baholaydi. Ya'ni unda rasmiy bo'ysunish munosabatlarida o'zaro kelib chiqadigan nizolar qonun bilan tartibga solinadi, shuningdek, ma'muriy majburlash choralarini qo'llashga qaratilgan bo'ladi.

V.A. Loriyaning fikriga ko'ra, jarayon nafaqat sud va suddan tashqari huquqiy nizolar va uning ishtirokchilari tomonidan hal qilinish holati, balki barcha davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlari, muassasalari, korxonalari va ayrim maxsus vakolatli ijtimoiy tashkilotlarda davlat boshqaruvi sohasida yuzaga keladigan alohida ishlarni ko'rib chiqishdir (Loria, 1974).

A. Lining nuqtayi nazarida "jarayon" atamasi ma'lum bir natijaga erishish uchun amalga

oshiriladigan ketma-ket harakatlar majmuini yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish tartibini anglatadi. Protsessual tartibga solishning huquqiy tabiati muayyan huquq sohasi predmetining mazmuni bilan belgilanadigan tartib-taomillarda munosabatlar ishtirokchilarining xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadigan xulq-atvorni nazarda tutadi. Shu ma'noda ular ma'muriy, jinoiy va fuqarolik ishlari shaklida tasniflanadi (Li, 2008).

Ilmiy va o'quv adabiyotlarida yuridik jarayonning quyidagi belgilari ko'rsatiladi:

- har qanday yuridik jarayon bosqichlardan iborat bo'ladi (Malko, 1995);
- unda huquqiy ta'sir qilish davrlari yoki protsessual ish yuritish tartibi mavjud;
- davlat-hokimiyati subyekti ishtirok etishi majburiy (Sorokin, 1972);
- jarayon dinamik tabiatga ega, ya'ni bu har doim o'z vaqtida qaytalanadigan faoliyatdir;
- yuridik jarayon huquqiy tabiatga va samaradorlikka ega;
- yuridik jarayon izchillikka ega, huquqiy tartibga solinadi, aloqadorlik, maqsadga muvofiqlik xususiyatlariga ega (Gorshenev, 1985);
- yuridik jarayon faqat “boshqaning manfaati”ga xizmat qiladi, shuning uchun uning ishtirokchilari liderlarga va bevosita manfaatdorlarga bo'linadi (Gorshenev, 1985).

Budjet jarayoni yuridik jarayonning barcha belgilarini o'zida qamrab oladi, lekin o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari ham mavjud. Xususan, jarayon ishtirokchilarining maxsus obyekti va subyektlari tarkibi, budjet huquqiy munosabatlarini vujudga keltiradigan maxsus yuridik faktlar, bosqichlarga bo'linish va hokazolar.

M.V. Karasevaning (2003) fikriga ko'ra, budjet jarayoni – noyob hodisa, chunki u yagona qonun – kelgusi moliyaviy yil uchun budjet qonunini shakllantirish va ijro etishga xizmat qiladigan yagona yuridik jarayon. Bundan tashqari, bunday qonun barqaror emas, chunki u har safar faqat bitta kalendar yil

uchun amal qiladi. Budjet jarayoni, ma'lum bir qonunga xizmat qiladigan boshqa protsessual shakllardan farqli o'laroq, bir vaqtning o'zida har yili paydo bo'ladigan budjet qonunining (qarorining) shakllanishi va bajarilishini ta'minlaydigan o'ziga xos protsessual shakldir. Shu ma'noda budjet jarayoni – budjet to'g'risidagi qonunning (qarorining) yagona protsessual shakli (Tsvetova, 2015) deyish mumkin.

Ushbu muallifning fikrlari hech kimda shubha-gumonni uyg'otmaydi, darhaqiqat, budjet jarayoni boshqa turdagi jarayonlardan farq qiladi. Na jinoyat, na fuqarolik protsessi biron-bir normativ hujjatlarning qabul qilinishi va bajarilishini ta'minlamaydi, faqat jinoyat ishlarini tergov qilish va sudga ko'rib chiqish, shuningdek, sud qarorlarini tayyorlash, qabul qilish va ijro etishga qaratiladi. Ma'muriy jarayon jinoiy va fuqarolik jarayonlariga nisbatan kam rivojlangan va uning turli talqinlari mavjud. Biroq ma'muriy jarayon ham, jinoiy va fuqarolik jarayonlari ham budjet jarayonidan tubdan farq qiladi, chunki ularning hech biri yagona qonunni (qarorni) qabul qilish va ijro etishning protsessual shakli bo'la olmaydi.

Budjet jarayoni davlatning budjet faoliyati asosini tashkil etadi, bunda davlat, uning organlari va mansabdor shaxslarining budjet daromadlarini shakllantirish (budjetni rejalashtirish va hisoblash), xarajatlar majburiyatlarini belgilash, budjet xarajatlarini rejalashtirish va amalga oshirish, budjetni moliyalashtirish manbalaridan daromadlarni ta'minlash, kamomadni, davlat va munitsipal qarzlarni to'lash, budjet nazoratini amalga oshirish harakatlarini amalga oshiradi (Kovaleva, 2007).

O'zbekiston Respublikasi budjeti jarayoni-da iqtisodiy, huquqiy va siyosiy jihatlar bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Budjet jarayoni mamlakatimiz budjet siyosatining ajralmas qismi bo'lib, uning samaradorligi budjet jarayonini huquqiy tartibga solish darajasi bilan belgilanadi. Budjet jarayonining

mazmuni mamlakatning davlat tuzilishi va uning budget tizimi, tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining budget vakolatlari bilan aniqlanadi.

Budget jarayonining mohiyati masalasi katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega, shuning uchun doim turli ilmiy hamjamiyatlar, birinchi navbatda, iqtisodiy va yuridik fan vakillarining diqqat markazida turadi.

Ba'zi iqtisodiy ilmiy adabiyotlarda budget jarayoni shunday ta'riflanadiki, u budgetni shakllantirish va ijro etishning ketma-ket bosqichlari to'plamini, uni ishlab chiqish paytidan boshlab ijro hisoboti tasdiqlanganiga qadar davlat va mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalarini ta'minlash, undan samarali foydalanish uchun markazlashtirilgan kassa fondini (davlat yoki shahar budgeti) yaratish maqsadiga bo'ysunadi (Yusupov, 2021).

AQSh iqtisodchi olimi William Mark Craigin fikriga ko'ra, davlat budgeti daromadlarni to'plash va olingan mazkur daromadlarni sarflash bo'yicha rasmiy kelishuv hisoblanadi. Ko'pgina siyosiy tizimlarda "budget" soliq qonunchiligini hamda muayyan dastur uchun xarajatlar darajasini belgilovchi siyosiy kelishuvlar jamlanmasi hisoblanadi. Shu sababli uning fikriga ko'ra, budget jarayoni – siyosatchilar tomonidan mazkur daromadlar va xarajatlar kelishuvini tuzish, qabul qilish va ijro etilishida foydalaniladigan tartib va jarayonlar majmuasidan iborat. Boshqa bir AQShlik olim Robb Shawe (2023) fikriga ko'ra, tashkilotchi menejerlar va siyosatchilar budgetdan hisobdorlik va qarorlar qabul qilish uchun foydalanadi. Unga ko'ra, budget jarayoni ma'lum bir subyekt yoki strategik reja maqsadlarida resurslarni taqsimlashni o'z ichiga olgan jarayon hisoblanadi.

Yirik iqtisodchi olim, uzoq yillar davomida Harvard universiteti iqtisod fakultetini boshqargan Artur Smit o'zining "AQShda budget jarayoni" asarida budget jarayonini doimiy davom etuvchi olti bosqichdan iborat jarayon

deb ataydi. Uning fikricha, mazkur jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) siyosiy maqsadlarni aniqlashtirib olish;
- 2) rejalashtirish;
- 3) dasturlashtirish;
- 4) budgetni tuzish va qabul qilish;
- 5) budgetni ijro etish;
- 6) budgetni tahlil qilish.

Germaniyalik olim Jürgen Von Hagen fikriga ko'ra, budget jarayonini to'rt bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich – ijroiya hokimiyati tomonidan rejalashtirish bosqichi ("executive planning stage"). Mazkur bosqich tegishli moliyaviy yildan 1 yil avval boshlanadi va qonun chiqaruvchi organga budget loyihasi taqdim etish bilan yakunlanadi. Ikkinchi bosqich – qonun chiqaruvchi organ tomonidan tasdiqlash bosqichi ("legislative approval stage"). Unda budget loyihasiga o'zgartirishlar kiritiladi va mazkur bosqich budget to'g'risida qonun qabul qilinishi bilan yakunlanadi. Uchinchi bosqich – ijroiya organi tomonidan amalga oshirish bosqichi ("executive implementation stage"). U budget qonuni amal qiladigan moliya yilini qamrab oladi. To'rtinchi bosqich – hisobot bosqichi ("ex post accountability stage"). Unda budgetning auditorlar tomonidan qonunchilikda belgilangan daromadlar va xarajatlarga mosligi tekshiruvdan o'tkaziladi.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT)ga a'zo mamlakatlarning budget jarayoni tadqiq qilinganda quyidagi 5 ta umumiy bosqich mavjud ekanligi aniqlandi.

Birinchi bosqichda ijro etuvchi organ budget loyihasini tayyorlaydi va uni qonun chiqaruvchi organga taqdim etadi. Bu odatda ikki bosqichli jarayon bo'ladi, ya'ni mamlakat Iqtisodiyot va moliya vazirligi yoki shunga o'xshash idora tomonidan budget loyihasi tayyorlanadi hamda unga davlat xarajatlari va mahalliy xarajatlari kiritiladi, so'ngra u Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ikkinchi bosqich parlament bosqichi bo'lib, unda budget loyihasi parlament qo'mitalarida muhokamadan o'tadi va qabul qilinadi.

Uchinchi bosqich budjetni ijro etish bosqichi bo'lib, parlament tomonidan qabul qilingan budjet ijro etuvchi organ – davlat idoralari tomonidan ijro etiladi.

To'rtinchi bosqich budjet ijrosining parlament nazorati bosqichi hisoblanadi, mazkur bosqich moliya yili davomida ham moliya yili yakunlanganidan keyin o'tkazilishi mumkin. Parlament nazorati bosqichi ijroiya organi tomonidan taqdim qilingan hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlashni o'z ichiga oladi.

Beshinchi bosqich – mustaqil tashqi audit bosqichi. Bunda yillik budjetning samaradorligi tahlil qilinadi.

AQShning budjet jarayoni yagona qonun hujjatida bayon qilinmagan. Mazkur davlatning budjet jarayoni bo'yicha qonunchiligini o'rganib chiqadigan bo'lsak, ushbu jarayonni amalga oshirish turli qonun hujjatlari bilan tartibga solinishini ko'rish mumkin. AQSh Konstitutsiyasida mamlakat federal budjeti sohasida, jumladan, uning xarajatlari va soliq sohasida roli ko'rsatib o'tilgan. Masalan, Konstitutsiyaning 1-moddasi 9-bo'limi 7-bandida alohida ikkita band mavjud – Assignovaniya to'g'risida va hisobotlar to'g'risida. Mazkur qoidalarga ko'ra, hech qanday mablag' mamlakat xazinasidan qonun orqali amalga oshiriladigan assignovaniyasiz olinishi mumkin emas. Vaqti-vaqti bilan davlat mablag'larini daromadlari va xarajatlari bo'yicha doimiy hisobot e'lon qilib borilishi kerak. Ammo Konstitutsiyada mazkur vakolatlar qanday amalga oshirilishi bevosita nazarda tutilmagan, shuningdek, budjet masalalari bo'yicha mamlakat prezidentining roli ham bevosita nazarda tutilmagan. 1921-yilda qabul qilingan Budjet va hisobot qonuni (Budget and Accounting Act 1921) Prezident va ijro etuvchi organning budjet vakolatlarini aniqlashtirib berdi. Mazkur qonun doirasida Prezident bilan budjet loyihasini tayyorlashda faoliyat yurituvchi Boshqaruv va budjet ofisi (Office of Management and Budget) nomli agentlik tuziladi.

Shuningdek, mazkur qonun bilan davlatning budjet faoliyatini nazorat qiluvchi mustaqil idora – Davlat hisobot ofisi (the Government Accountability Office) tashkil etildi. Budjet va hisobot qonuni (Budget and Accounting Act 1921) AQSh prezidentiga Kongressga federal budjet loyihasini taqdim etish vakolatini beradi. Qonun chiqaruvchi organning budjet sohasidagi vakolatlarini tartibga solish maqsadida 1974-yildagi AQSh Kongressining budjet va konfiskatsiyalar bo'yicha nazorati to'g'risida qonun (Congressional Budget and Impoundment Control Act of 1974) qabul qilingan. Mazkur qonun AQSh Kongressining budjet jarayonidagi vakolatlarini belgilab beradi. Bunga ko'ra, Kongress o'zining budjet tadqiqot ma'lumotlarini yig'ish uchun Kongressning budjet idorasi (Congressional Budget office)ni tashkil etish va budjet masalalarini hal qilish uchun Vakillar palatasi va Senatda doimiy qo'mitalar tashkil etish vakolatiga ega bo'ldi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, AQSh budjet jarayoni federal budjetni tayyorlash, tasdiqlash, ijro etish va nazoratni amalga oshirishni tartibga soladigan bir qancha qonun hujjatlariga asoslangan hamda ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi organ o'rtasida hamkorlikni talab qiluvchi murakkab tizim hisoblanadi.

Osiyo davlati hisoblanmish Yaponiyada ham budjet jarayoni xuddi AQShdagi budjet jarayoniga o'xshash hisoblanadi. Ishi Hiromitsu fikriga ko'ra, Yaponiyada budjet jarayoni quyidagi bosqichlarga bo'linishi mumkin:

1) budjetni tayyorlash va uni parlamentga taqdim etish;

2) parlamentda ko'rib chiqish;

3) budjetni ijro etish va budjet auditini o'tkazish.

Respublikamiz budjet jarayoni quyidagi bosqichlarga ajratiladi: 1) budjetni tayyorlash, ko'rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash; 2) budjetni budjet mablag'larini oluvchilarga yetkazish; 3) budjet ijrosi va uning ijrosini nazorat qilish; 4) budjet ijrosi to'g'risidagi

hisobotni tayyorlash va tasdiqlash. Ammo fikrimizcha, budjetni budjet mablag'larini oluvchilarga yetkazishni alohida bosqich sifatida ajratish O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi 16-bobi normalariga to'liq mos kelmaydi, bunda ushbu bosqich budjet jarayonining mustaqil bosqichi sifatida belgilanmagan, balki budjetni tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash bosqichiga kiritilgan. Bundan tashqari, alohida bosqichlarning mazmuni biroz tushuntirishni talab qiladi. Xususan, ular budjet ijrosi ustidan nazorat qilishni uchinchi bosqich sifatida chiqarib tashlashni talab qiladi, chunki ta'kidlanganimizdek, nazorat budjet jarayonining barcha bosqichlariga xos, ya'ni to'rtinchi bosqich O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining "Budjet hisobi va hisobotini yuritish tartibi" deb nomlangan 24-bobida va "Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlash" deb nomlangan 25-bobida nazarda tutilgan normalarda aynan shu mazmun aks etgan.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi budjet jarayonining uch bosqichi mavjud:

- 1) budjetni tayyorlash, ko'rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash;
- 2) budjet ijrosi;
- 3) budjet hisobi va hisobotini yuritish, tashqi audit va davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni baholash, budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqish va tasdiqlash.

Budjet jarayonining ushbu bosqichlari doimiy, takrorlanadigan va izchil bir-birini almashtiradi. Bir bosqichni yakunlash budjet jarayonining boshqa bosqichining sharti va boshlanishidir. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 2-bobi O'zbekiston Respublikasida budjet jarayoni ushbu bosqichlarining har birini o'rganishga bag'ishlangan.

O'zbekistonda budjet jarayonida nazoratning huquqiy mexanizmlari yetarlicha aniq belgilab qo'yilmagan. Budjet kodeksi

nazoratni budjet jarayonining alohida bosqichi sifatida emas, balki barcha bosqichlarga xos umumiy jarayon sifatida belgilagan. Amaliyotda esa quyidagi muammolar kuza-tiladi:

- parlament nazorati cheklangan;
- mustaqil tashqi audit tizimida bo'shliqlar mavjud;

- davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining sarflanishi ustidan ochiq nazorat yetarli emas;

- budjet ijrosi bo'yicha hisobotlar o'z vaqti-da yoki to'liq shaklda taqdim etilmaydi.

Bu esa huquqiy noaniqliklar va tartib-taomillarni amalda bir xil qo'llamaslikka olib kelmoqda.

Davlat qarzining tez o'sishi – nazoratning sustligidan dalolat.

2024-yil yakunida davlat qarzi 40,2 mlrd dollarga yetdi.

2025-yil 1-iyul holatida esa 43,3 mlrd dollar.

Bu darajadagi o'sish nazorat mexanizmlarining huquqiy jihatdan yetarlicha samarali emasligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining amaldagi tahririda budjet jarayoni bosqichlarini yanada aniqlashtirish zarurligi asoslantirildi hamda budjet jarayonining alohida bosqichlariga xos mezonlarni chuqur tahlil qilish natijasida quyidagi uch bosqichni belgilash taklif etildi:

- O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash;

- budjet ijrosi;

- budjet hisobi va hisobotini yuritish, tashqi audit va davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni baholash, O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash.

Taklif etilayotgan mazkur bosqichlar O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining barcha darajalarida budjet jarayoniga tatbiq etilishi asoslantirildi.

REFERENCES

1. Artyukhin, R. E. (2008). *Pravovoe regulirovanie otchetnoy stadii byudzhelnogo protsessa* [Legal regulation of the reporting stage of the budget process] [Abstract of PhD thesis]. Moscow.
2. Bozhenok, S. Ya. (2011). *Teoretiko-pravovye osnovy regulirovaniya dokhodnoy sistemy gosudarstvennykh i mestnykh byudzhetrov Rossiyskoy Federatsii* [Theoretical and legal foundations for regulating the revenue system of state and local budgets of the Russian Federation] (p. 26). [Abstract of PhD thesis]. Moscow.
3. Gorshenev, V. M. (1985). *Teoriya yuridicheskogo protsessa* [Theory of legal process]. (p. 10, pp. 92–97). Moscow.
4. Kovaleva, V. V. (2007). *Finansy* [Finance] (p. 167). Moscow: TK Vel-bi Publ.
5. Karaseva, M. V. (2003). *Byudzhetnoe i nalogovoe pravo Rossii* [Budgetary and tax law of Russia] (pp. 58–60). Moscow: Yurist Publ.
6. Loria, V. A. (1974). *Nekotorye voprosy teorii kodifikatsii administrativnogo prava* [Some issues of the theory of codification of administrative law] (p. 31). Tbilisi.
7. Lekhina, I. V., & Petrova, F. N. (1952). *Kratkiy slovar' inostrannykh slov* [A Brief Dictionary of Foreign Words] (p. 322). Moscow.
8. Li, A. (2008). *Finansovoye zakonodatel'stvo Respubliki Uzbekistan* [Financial legislation of the Republic of Uzbekistan] (p. 97). Tashkent: The Publishing and Printing Creative House named after Chulpan.
9. Malko, A. V. (1995). *Teoriya gosudarstva i prava* [Theory of state and law] (p. 331). Saratov.
10. Osipov, Yu. K. (1976). *Elementy i stadii primeneniya norm sovetskogo grazhdanskogo protsessual'nogo prava* [Elements and stages of application of the norms of Soviet civil procedural law]. (p. 43). Sverdlovsk.
11. Salishcheva, N. G. (1963). *K voprosu ob administrativnom sudoproizvodstve v SSSR. Voprosy administrativnogo prava na sovremennom etape* [On the issue of administrative proceedings in the USSR. Issues of administrative law at the present stage] (p. 16). Moscow.
12. Shawe, R. (2023). Budget and Organization Management. *Open Journal of Business and Management*, 11(3), 910–919.
13. Sorokin, V. D. (1972). *Administrativno-protsessual'noe pravo* [Administrative procedural law] (p. 126). Moscow.
14. Tsvetova, G.V. (2015). *Byudzhetnyy protsess v Rossiyskoy Federatsii: metodologiya, praktika i perspektivy razvitiya* [The budget process in the Russian Federation: methodology, practice and development prospects] (p. 25). [Monograph] Khabarovsk: Far-East Institute of Management, branch of RANEP.
15. Yusupov, S. B. (2021). Analiz problem v protsesse parlamentskogo rassmotreniya otchetov ob ispolnenii byudzheta v Uzbekistane [Analysis of problems in the process of parliamentary review of budget execution reports in Uzbekistan]. *Young Scientist*, 47(389).

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL MAXSUS SON

VOLUME 5 / SPECIAL ISSUE / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI